

Urganch sh. Xonqa ko'chasi 36/1-uy. Tel.: 224-16-45

Yagona interaktiv davlat
xizmatlari portali (YAIDXP)
№46399279 sonli arizaga javoban

№63-237-TSH/ 72
16.02.2024

«Xorazm hududiy elektr tarmoqlari» AJ tarmoqlariga ulanish uchun

Nusxasi «O'zenergoinspeksiya» inspeksiyasining Xorazm hududiy bo'limiga,
(750 kVA va undan yuqori «O'zenergoinspeksiya» inspeksiyasiga)

Obekt nomi:	Chiqindi tashlash poligoni («Xorazm viloyati toza hudud» DUK)
Ulanadigan obektning manzili:	Qo'shko'pir tuman, Yangilik mahallasi
Ruxsat qilingan umumiy quvvat:	200 kVt (shundan: 50 kVt II-kategoriya)
Elektr ta'minoti toifasi:	III-II
Ishga tushirish muddati:	

Texnik shartlar mazmuni

1. Asosiy elektr ta'minoti 110/35/10 kVli Qo'shko'pir PSi Silikat-2 fiderining 10 kVli havo liniyasining №83 sonli tayanchidan razedinitel o'rnatish bilan qabul qilinsin.
2. Zaxira elektr ta'minoti uchun kerakli quvvatga ega dizel elektr stansiyasi (DES) yoki muqobil energiya manbaalari o'rnatilsin.
3. Ulanish nuqtasidan obektgacha 10 kVli elektr uzatish liniyasi qurilsin va liniya trassasi barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilsin.
4. Yangi iste'molchilarning ulanishi tufayli mavjud tarmoqni kuchaytirish maqsadida Silikat-2 fiderining №67 va 86 sonli yog'och tayanchlari, traversa va izolyatorlari bilan birga almashtirilsin.
5. Obektida qurilish-montaj ishlarida sertifikatlangan yangi materiallardan foydalanilsin. AAShVU markali kabel qo'llash man etiladi.
6. Obektida TP qurilsin, TP-ning soni va quvvati xisob-kitob bo'yicha olinsin va qonuniy hujjatlarga ega bo'lsin.
7. Obektida reaktiv energiya va quvvat o'rnini to'ldirish uchun kompensatsiya qilish qurilmasi qayta hisob kitob asosida loyihaga binoan o'rnatilsin.
8. Loyiha tegishli litsenziyasi mavjud bo'lgan tashkilotlarda bajarilsin.
9. Qurilish-montaj ishlari elektr tarmoqlari yoki maxsus qurilish-montaj tashkilotlari tomonidan loyihaga asosan bajarilsin.
10. Obektning tashqi elektr ta'minoti loyihasi «Xorazm hududiy elektr tarmoqlari» AJ bilan kelishilsin. («Xorazm HET» AJ tomonidan ishlab chiqilgan loyixalar bundan mustasno).
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 dekabrda №1050-sonli Qaroriga muvofiq qurilish ishlari elektr tarmog'i xo'jaligi obektlari muhofaza zonalarini saqlangan holda olib borilsin.
12. Elektr energiyasi iste'molini xisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (ASKUE) yagona ma'lumotlar markazi bilan birgalikda ishlay oladigan TE-73 tipidagi energiyasi hisobga olish priborlari «Xorazm HET» AJ ning ASKUE guruhi bilan kelishilgan holda mansublik chegarasiga yoki loyihadan kelib chiqqan holda TP-ning 0,4 kVli shitida o'rnatilsin.
a) Elektr energiyasi iste'moli to'g'risidagi ma'lumotlar iste'molchi hisoblagichidan «Hududiy Elektr Tarmoqlari» AJ ning ma'lumotlarni qayta ishlash yagona markazi guruhi kompyuter bazasiga chiqarilsin.
13. Elektr tarmoqlariga ulanish xizmat farmoyishi orqali «O'zenergoinspeksiya» inspeksiyasining Xorazm hududiy bo'limi tomonidan berilgan elektr uskunalarini ekspluatatsiya qilishga ruxsatnoma olgandan keyin amalga oshirilsin.

14. Obyektni yoritishda energotejamkor lampalardan foydalanilsin. (texnologik jarayonda alohida turdagi lampalardan foydalanish talab etiladigan holatlardan tashqari).

15. Obyektning elektr ta'minoti loyihasi «O'zenergoinspeksiya» Xorazm hududiy bo'limi bilan kelishilsin.

16. Elektr energiya xisobi Elektr qurilmalari tuzilishi qoidasi (PUE)ga asosan bajarilsin.

17. Energiya (quvvat)ni hisobga olish pribori balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmagan taqdirda, elektr tarmog'ining chegarasidan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan qismidagi energiyaning texnologik sarfi hajmi iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali dalolatnoma tuzilgan holda "Elektr ta'minoti bo'yicha namunaviy shartnomasi (4-ilova)" da aniqlanadi va elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab, Korxonada yoki Iste'molchi hisobiga o'tkaziladi.

18. Texnik shartlar talablari bajarilishi shart.

19. Tarmoqqa ulanish uchun ushbu texnik shart asos deb hisoblanmaydi.


20. Obyektni tarmoqqa ulashga «O'zenergoinspeksiya» inspeksiyasi Xorazm hududiy bo'limi vakili tomonidan tekshirish o'tkazilgandan keyin, texnik hujjatlar harakatdagi qoidalarga muvofiq bo'lib, ekspluatatsiya qiluvchi xodim tayyorlanib elektr qurilmalarida XTQ (PTB) va TEK (PTE) bo'yicha bilimi tekshirishdan o'tkazilgandan keyin ruxsat qilinadi.

21. Texnik shartda qo'yilgan talablarni bajarish va obyektga tarmoqqa ulash ishlarini amalga oshirish muddati 01.02.2023 yilgacha.

Ushbu muddat o'tgandan keyin texnik shart bekor qilingan hisoblanadi.

Texnik direktor

№46399279



O.I.Radjapov